

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024
6-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:

M.Boltabayev

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.Esanov

Bosh muharrir:

J.Usmanov

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.Abduxalilova

L.Zaripov

S.Xudoyberdiyeva

R.Jo'raqulov

M.Aripov

B.Zaripov

U.Djumaniyazov

T.Axmedov

N.Toshpo'latova

S.Maxsumova

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Komil Avazov. YANGI O'ZBEKISTONDA TAHDIDBARDOSH JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYASI	3
Жаксылык Игиліков. ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ЗАКОНОДАТЕЛЬНОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНСТИТУТА	6
Nasiba Sayimbetova. LOYIHAVIY FAOLIYATNING MOHIYATI, BOSQICHLARI VA TAMOIYILLARI.....	11
Vaziraxon Axmedova. INKLYUZIV TA'LIMDA GENEDR TENGLIK TUSHUNCHASINI SHAKILLANTIRISH YO'LLIRI	14
Valijon Sadiyev. TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TALABALARNING VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA YONDASHUVLAR	20
Gulnoza Najmutdinova. REFLEKSIV KO'NIKMALARNI OSHIRISH UCHUN INNOVATION USLUBLAR.....	24
Khilola Otakhonova. DEVELOPING INTEGRATED EDUCATIONAL STRATEGIES FOR ANALYZING DIGITAL MEDIA CONTENT USING SOCIOLINGUISTIC AND CULTURAL FRAMEWORKS	29
Munisa Toshboyeva. FAST TRAINING METHODS FOR TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS IN PARADZUDO	34
Fakhridin Karimov. DEVELOPMENT OF A SET OF HEALTH-IMPROVING EXERCISES FOR MIDDLE-AGED MEN 45-60 YEARS OLD, TAKING INTO ACCOUNT PHYSICAL FITNESS.....	39
Madina Avezova. BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA NAZARIYA VA AMALIYOT UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	45
Jo'raqul Choriev. TALABALARDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI TARBIYALASHNING IJTIMOY-SIYOSIY JIHATLARI.....	48
Xolbek Haydarov. ART PEDAGOGIKANING TARIXIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	55
Odina Otajonova. YOSHLAR TAFAKKURINI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIYANING O'RNI.....	59
Munavvarxon Sultonova. TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGLARNING SUN'IY INTELLEKT DAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI	62
Sevara Mingyasharova. INNOVATION METODLAR YORDAMIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.....	66
Azadaxon Imamxodjayeva. GOSSIPOL VA SALITSIL KISLOTA MIQDORINING O'ZGARISHI NATIJASIDA G'O'ZANING FOV4 MAHALLIY SHTAMMIDAN KELIB CHIQQAN FUSARIUM WILTIGA CHIDAMLILIGINI BAHOLASH	70
Kamola Abduraxmanova. YO'L HARAKATI MADANIYATINI REKLAMA QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SHARTLARI.....	76
Muhammadhusanbek Qodirov. SPORT TURLARIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH	81
Sarvinov Xolmatova. MAKTABGACHA TAYYORLOV DAVRIDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	84
Zuhra Bozarova. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING BOLALAR BILAN PEDAGOGIK ISH OLIB BORISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.....	87
Sojida Yaxyoyeva. TA'LIM TRANSFORMATSIYASIDA GENDER TENGLIKNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI	90
Gulshan Vaxabova. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING ESTETIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH	94
Asliddin Kamalov. 3000 METRGA YUGURUVCHI 15-16 YOSHLI SPORTCHILARNI MASHG'ULOT JARAYONIDA MAXSUS-CHIDAMKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	97
Dildora Ashurova. HAMKORLIKDA O'QITISH JARAYONI: INNOVATION YONDASHUV VA UNING AMALGA OSHIRISHDAGI DOLZARB MUAMMOLARI.....	101

CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	402	STUDENTS CREATIVE THINKING THROUGH MEDIA EDUCATION METHODS	519
Mirsaid Yunusov. ESHITISHIDA MUAMMOSI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USTIDA ISH OLIB BORISH BOSQICHLARI	405	Shafolat Eshonqulova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI METOD VA VOSITALAR	523
Navbahor Shadiyeva. YORDAMCHI MAKTAB INTERNATI AQLI ZAIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK BILIMLARNI EGALLASH XUSUSIYATLARI	414	Tamannoxon Ahunova. RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING AMALIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	527
Nodira Toshpulova. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI O'STIRISH	421	Yulduz Narziyeva. TA'LIM VA ILM-FANDA AYOLLARNING O'RNI: INNOVATSIYALAR VA YUTUQLAR	532
Sevinch Axrorova. AUTIZM SINDROMLI BOLALARNING MULOQOT KO'NIKMALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH.....	428	Behzod Beknazarov. TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIGA DAVLAT TOMONIDAN BERILAYOTGAN E'TIBOR NATIJASIDA UNDAGI MUAMMOLAR VA ULARNIN YECHIMLARI TAHLILI.....	535
Temurbek Sultanov. JIZZAXDA TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI KECHA VA BUGUN	437	Muhammadjon Isomov. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR	537
Kamalitdin Astanakulov. THE ROLE OF THE PRINCIPLE OF MOTIVATION IN USING MODERN TECHNOLOGY	441	Shaxzoda Mavlonova. INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA O'QUVCHILARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI	541
Madinabonu Xonbabayeva. BO'LAJAK LOGOPEDARNING METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANGANLIK DARAJASINI O'RGANISH.....	444	Yo'ldoshali Mirzaboyev. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MATEMATIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI	544
Nuriddin Narzullayev. GEOGRAFIYA DARSLARIDA INSONPARVARLASHTIRISHNING METODIK TIZIMLARI.....	448	Sunnatulla Musamedov. TALABALAR UCHUN KOMPYUTER GRAFIKASI TA'LIMINING INDIVIDUALIZATSIYASI: METODOLOGIK YONDASHUVLAR.....	547
Мафтуна Отажоновна. ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АЛТРУИСТИК КОМПЕТЕНЦИЈАЛАРИНИ КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ.....	452	Dilnavoz Qo'ldasheva. XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSH LARI BADIYIY MANBALARINING TILSHUNOSLIK FANI NUQTAYI -NAZARIDAN O'RGANILISHI	552
Kamol Rahmonov. HAMKORLIK STRATEGIYASINING "KOMANDADA O'QITISH" METODIGA ASOSLANGAN O'QUV MASHG'ULOTINING UMUMIY KO'RINISHI ("MILLIY CHEGARALANISH" MAVZUSI MISOLIDA)	460	Shohboz Qodirov. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING CHIDAMLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOIY XUSUSIYATLARI	555
Islambay Ruziyev. TRANSPORT SOHASI BO'LAJAK MUHANDISLARINI KASBIY FAOLIYATINING MOHIYATINI ANIQLASH	466	Гулноза Мардиева. ИЖТИМОЙ ХАМКОРЛИК АСОСИДА КАСБИЙ МАЛАКАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ	558
Saidjalolxon Gaziye. O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM JOZIBADORLIGINI TA'MINLASHDA XALQARO PLATFORMALARI AHAMIYATI (Study in Turkiya platforma tahlili asosida)	472	Xatichabegim Samadova. EKSTRAKSIYA QILINGAN PAXTA YOG'INI RAFINATSIYALASH	564
Baxriddin Izbosarov. FIZIKA FANIDAN "REAL GAZLARNING BO'SH LIQDA KENGAYISHI" MAVZUSINI ISHLAB CHI QARISHDA QO'LLANILISHI VA STEM TA'LIMI BILAN BOG'LAB O'QITISH METODIKASI	480	Ra'noxon Sharofutdinova. KO'RISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOSH LANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MODEL I	569
Dilnora Axmedova. TALABALARDA KORRUPTSIYAGA QARSHI INTOLERANT MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH.....	484	Nozima Siddiqova. RELATIONSHIP OF PAREMIOLOGICAL UNITS AND APHORISMS	572
Sarvinov Axmedova. ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARI UCHUN IMKONIYAT SIFATIDA.....	487	Hojiakbar Tursunov. IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH: O'ZBEKISTON VA YEVROPA TAJRIBASI	575
Javohir Ibotov. YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQIY TA'LIM SAMARADORLIGIGA ERISHISH ZAMON TALABI SIFATIDA.....	491	Zilola Xursanova. BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	581
Zuxra Djaxangirova. BOSH LANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.	493	Gulbaxor Isanova. JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISH: AXBOROT TARQATISHNING SAMARALI YO'LLARI.....	583
Sarvinov Rahimova. YANGI RENESSANS DAVRID A PEDAGOG FAOLIYATINING BOSH QARUV IMKONIYATLARI.....	501	Laziz Mamajonov. MEDIATEXNOLOGIYASLAR ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOIY FAOL, MILLIY G'URUR, VATANPARVARLIK KOMPETENTSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUV.....	587
Sevara Suvonova. O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TOLERANTLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK JIHATLARI	505	Jasur Normatov. RAQAMLI TIBBIY TA'LIMDA KLINIK FANLARNI O'QITISH VA ONA SUTINING KIMYOVIY TARKIBI VA UNING BIOLOGIK-METODIK AHAMIYATI.....	591
Kamolaxon Abrorxonova. BO'LAJAK BOSH LANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA.....	510	Gulbaxor Rasulova. O'QUV TOPSHIRIQLAR TIZIMIDAN FOYDALANIB ADABIY O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	596
Aziza Amonova. O'ZBEKISTONNING XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI O'RNI.....	514		
Ma'mura Dehkanova. MECHANISMS FOR TEACHING			

HAMKORLIK STRATEGIYASINING “KOMANDADA O‘QITISH” METODIGA ASOSLANGAN O‘QUV MASHG‘ULOTINING UMUMIY KO‘RINISHI (“MILLIY CHEGARALANISH” MAVZUSI MISOLIDA)

Kamol Rahmonov,
Buxoro davlat universiteti,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari tarix ta’lim yo‘nalishi 5-semestrida “O‘zbekiston tarixi” fanining 7-mavzusi hisoblangan “Milliy-hududiy chegaralanish” o‘quv (seminar) mashg‘ulotini hamkorlik strategiyasining “Komandada o‘qitish” metodi asosida o‘qitilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: komandada o‘qitish, ijodiy izlanish, milliy-hududiy chegaralanish, ko‘rgazmali qurollar, chizma-grafiklar, birinchi qurultoy, moliya komissari, dyebat

Аннотация

В данной статье даются рекомендации по проведению учебного (семинарского) занятия по теме «Национально-территориальное размежевание», являющейся 7-й темой дисциплины «История Узбекистана» в 5-м семестре направления обучения истории в вузах Узбекистана, на основе метода «Командное обучение» стратегии сотрудничества.

Ключевые слова: командное обучение, творческий поиск, национально-территориальное размежевание, наглядные пособия, схемы-графики, первый съезд, комиссар финансов, дебаты.

Annotation

This article provides recommendations for conducting a study (seminar) session on the topic "National-Territorial Delimitation," which is the 7th topic of the subject "History of Uzbekistan" in the 5th semester of history education programs at higher educational institutions of Uzbekistan, using the "Team-Based Learning" method of the collaboration strategy.

Keywords: team-based learning, creative research, national-territorial delimitation, visual aids, charts and diagrams, first congress, finance commissar, debate.

Kirish (Introduction) Pedagogika tarixida hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi 1970 yillarda paydo bo‘lgan. Dunyoning Buyuk Britaniya, Kanada, GFR, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil oliy ta’lim muassasalari talabalar uchun ilk bora keng qo‘llanilgan ushbu o‘qitish usuliga ko‘ra, talabalar o‘quv matyeriallarini bahs va munozaralarga asoslanib o‘rganadilar.

Natijada:

- har bir talaba mustaqil fikr yuritishda o‘rganadi;
- har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi vujudga keladi;
- o‘z kuchi va qobiliyatida ishonch mustahkamlanadi;
- har bir talaba sidqidildan aqliy mehnat qilishga o‘rganadi;
- har talaba o‘quv topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajarishga intiladi;
- o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam berishga harakat qiladi. [1]

Yuqoridagi natijalarga erishish uchun jahonning bir qator metodist olimlari tomonidan hamkorlik o‘qitish texnologiyasi asosida talabalarni hamkorlikda o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha bir necha metodlar tavsiya beriladi.

- 1) Komandada o‘qitish (AQSHdagi Xopkins universiteti professori R.Slavin, 1990);
- 2) Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish (R.Slavin, 1986);
- 3) Hamkorlikda o‘qitishning “arra” usuli (Koliforniya universiteti professori J.Arimson, 1978);

4) Hamkorlikda o'qitishning “Birgalikda o'qiymiz” metodi (Minnesota universiteti professori R.Jonson, 1987);

5) Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi (Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan, 1988). [1]

Mazkur kichik tadqiqotimizda hamkorlik strategiyasining “Komandada o'qitish” metodi tanlanib, O'zbekiston oliy o'quv yurtlari tarix ta'lim yo'nalishi 5-semestrida “O'zbekiston tarixi” fanining 7-mavzusi hisoblangan “Milliy-hududiy chegaralanish” o'quv (syeminar) mashg'ulotini tashkil etishga tavsiyalar beriladi. Shuni qayd etish joizki, mazkur metodga asoslangan mashg'ulotda mavzu mazmuni o'rtacha qiyinchilikda bo'lishi nazarda tutiladi, talabalarda o'tgan va yangi materiallarni tez o'zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) “O'zbekiston tarixi” fani seminar mashg'ulotlarining o'rtacha murakkablik darajasiga ega mavzularini borishini quyidagicha loyihalash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Mashg'ulotning mavzusi: “Milliy-hududiy chegaralanish”

Mashg'ulotning ta'limiy maqsadi: O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirilishining sabablari, maqsadi va mohiyati; O'zbekiston SSRning tashkil topishi; O'rta Osiyoda o'tkazilgan rayonlashtirish hamda uning xalq xo'jaligiga ta'siri masalalarini amaliy jihatdan o'rganish.

Mashg'ulotning tarbiyaviy maqsadi: O'rta Osiyo respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish masalalarini o'rganish asnosida biror muhim qaror qabul qilishdan oldin qilinajak qarorning oqibatlari haqida chuqur o'ylab ko'rib, ushbu qaror nafaqat kishining o'ziga, balki atrofdagilarga ham ta'sir qilishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozimligini uqtirish. [6]

Mashg'ulotning jihozlari:

- xaritalar (O'zbekiston va jahon siyosiy xaritalari, XX asrning 20-yillari davri mavzulariga oid xaritalar);
- ko'rgazmali qurollar (arxiv hujjatlari, “Ozod Buxoro”(1923-1929 yillarda chop etilgan) va boshqa gazetalarning mavzuga doir maqolalari, tarixiy shaxslarning suratlari)
- tarqatma materiallar (interfaol chizma-grafiklar, jadvallar, rag'bat kartochkalari)
- texnika vositalari (elektron doska, proyektor)


Mashg'ulotda foydalanilgan texnologiya: hamkorlik strategiyasining “Komandada o'qitish” metodi.

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash


O'tgan mavzu “Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalaridagi ijtimoiy-xo'jalik hayot” mavzusi bo'yicha “Komandada o'qitish” metodi asosida talabalar bilimini sinab ko'rish uchun quyidagi jarayon amalga oshiriladi. Bunda talabalar teng sonli ikki komandada ajratiladi. Har ikkala komandaga bir xil chizma-grafikli topshiriq beriladi. Guruhlarga a, b, s, d harflari joylashgan kataklarga mos keluvchi ma'lumotlarni tezkor yozish topshiriladi:

1-chizma




Mazkur chizma-grafik (1-chizma) ajratilgan ikkita komandaga bir vaqtda tarqatiladi. Talabalarga 3 daqiqa vaqt beriladi. Topshiriq bajarilib bo'lingach, guruhlarining yozgan ishlari muhokama qilinadi (2-chizma yordamida). Tezkor va to'g'ri javob bergan guruh rag'bat kartochkalari orqali baholanadi.

2-chizma



O'qituvchi talabalarning o'tgan mavzu bo'yicha nazariy bilimlarini seminar mashg'ulotida mustahkamlashlari uchun "Tarix charxpalagi" uslubidan foydalanishi mumkin. [5] Bunda kompyuter va proyektr yordamida ekranga dastur chizmasi chiqariladi yoki vatman qog'ozda oldindan tayyorlab doskaga olib qo'yadi.



So'ngra har bir komandadan bir nafar talaba taklif etiladi. Taklif etilgan talaba chizmada berilgan "Tarix charxpalagi"dagi sirli raqamlardan birortasini tanlashi lozimligi aytiladi. Birdan beshgacha bo'lgan raqamlar orasidan istalgan raqamni tanlaydi va shu raqam ostida yashirilgan savolni o'z guruhiga taqdim etadi. Javob berish uchun 10 soniya vaqt ajratiladi. Ishtirokchi talaba o'z javobini aytib bo'lgach, o'yinni davom ettirish uchun keyingi talabani taklif qilish interfaol usulda amalga oshiriladi. Buning uchun guruhda necha nafar talaba bo'lsa, doskaga chiqqan talaba 1 dan boshlab guruhdagi talabalarning umumiy sonigacha bo'lgan raqamlar orasidan birini aytadi va guruh jurnalida shu raqam ostida qayd etilgan talaba o'yinni davom ettiradi. "Tarix charxpalagi"dan sirli raqamlarni tanlashda, shuningdek, talabalarni ishtirokchi sifatida taklif qilishda bir marotaba aytilgan raqam ikkinchi marotaba takrorlanmasligi lozim. Shu tariqa 5 nafar talaba birin-ketin 5 ta savolga javob beradilar. G'olib talaba qaysi komandadan ekanligidan kelib chiqib, o'z guruhiga g'alabali daqiqalarni taqdim etadi.

"Tarix charxpalagi" uslubini amalga oshirish uchun talabalarga beriladigan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. 1921 yil bahorida Buxoroning qaysi qismida qizil armiyaga qarshi ommaviy xalq qo'zg'olonlari ko'tarildi? (Sharqiy Buxoroda)

2. Qizilqumda qizil askarlarga qarshi bo'lgan janglarning birida 1924 yilning oxirida halok bo'lgan qo'rboshi kim? (Mulla Abdulqahhor)

3. Anvar Posho 1922 yil avgustda Sharqiy Buxoroning Baljuvon atrofidagi qaysi qishloqda qizillarga qarshi jangda halok bo'ldi? (Obidara)

4. Mulla Abdulqahhor bilan qizil askarlar o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tgan G'ishti va Kattag'amxo'r qishloqlari qaysi tumanga qarashli? (G'ijduvon)

5. Amir Olimxon qachon Afg'oniston hududiga o'tib ketishga majbur bo'ladi? (1921 yil martida) [4]

III. Yangi mavzuni o'rganish

a) talabalarni komandaga ajratib, bir necha kichik guruhlarini tashkil etish hamda har bir komanda a'zolari tomonidan belgilangan o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda bajarishga erishish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bunda talabalar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komandaga bir xil jadvalni to'ldirish topshirig'i beriladi. Guruhlarga a, b, s, d, ye harflari joylashgan kataklarga mos keluvchi ma'lumotlarni tezkor yozish topshiriladi:

1-jadval

O'zbekiston hukumati tarkibi	Lavozimlarning nomi
Fayzulla Xo'jayev	a
b	yer ishlari komissari
Rahmat Rafiqov	s
d	moliya komissari
Abdujabborov	ye

Mazkur jadval ajratilgan ikkita komandaga bir vaqtda tarqatiladi. Talabalarga 3 daqiqa vaqt beriladi. Topshiriq bajarilib bo'lingach, guruhlarining yozgan ishlari muhokama qilinadi (2-jadval yordamida). Tezkor va to'g'ri javob bergan guruh rag'bat kartochkalari orqali baholanadi.

2-jadval

O'zbekiston hukumati tarkibi	Lavozimlarning nomi
Fayzulla Xo'jayev	a) xalq komissarlari raisi
b) Inomjon Xidiraliyev	yer ishlari komissari
Rahmat Rafiqov	s) ichki ishlar
d) Qori Yo'ldosh	moliya komissari
Abdujabborov	ye) sog'liqni saqlash [3]

b) Komandalar o'rtasida o'quv bahsini uyushtirish.

“Komandada o'qitish” metodi uchun “Debat” o'quv bahsi mos keladi.

Debat - bu aniq tuzilgan va maxsus tashkil etilgan dolzarb mavzu bo'yicha ikki komanda o'rtasidagi bahs hisoblanadi. “Milliy-hududiy chegaralanish” mavzusi bo'yicha quyidagi bahs-munozara masalalari o'qituvchi tomonidan muhokamaga qo'yiladi. Bunda ikki komandaning biriga “Tarafdorlar” ikkinchi guruhga “Qarshilar” deb nom qo'yiladi. “Milliy-hududiy chegaralanish” mavzusi bo'yicha o'qituvchi to'rtta muammoli vaziyatni kompyuter va proyektr yordamida ekranda chiqaradi.



“Tarafdorlar” va “Qarshilar” o‘z guruhlarida ushbu munozarali masalalarni o‘rganib, o‘z guruh a‘zolari bilan mustaqil fikr yuritishlari uchun besh daqiqa vaqt ajratiladi. Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi birinchi ma’lumotni o‘qiydi. Shundan so‘ng “Tarafdorlar” guruhi o‘z fikrlari bilan ushbu muammoli vaziyatni ijobiy tomonlarini dalillar orqali isbotlashga harakat qiladilar. “Qarshilar” guruhi “Tarafdorlar”ning fikrlarini tinglagach, o‘zlarining tanqidiy mulohazalarini, muammoli vaziyatning salbiy tomonlarini bayon etadilar. O‘qituvchi esa ushbu vaziyat bo‘yicha ikkala guruhning fikrlarini tinglagan holda masalaning asosli tomonlariga tayanib, xulosa yasaydi. Shu tariqa to‘rtta muammoli vaziyat ham o‘qituvchining mulohazalari yordamida o‘z xulosaviy yechimini topadi. Yakunda guruhlarning faol talabalari rag‘bat kartochkalari asosida baholanadi.

s) O‘quv matyerialini mustahkamlashni amalga oshirish.

Mavzu rejalarini mustahkamlash uchun “To‘rt ustun” dasturi bo‘yicha guruhlariga quyidagi jadval ikki guruhga taqdim etiladi.

atama	shaxs	hudud	yil
a	Fayzulla Xo‘jayev	Buxoro	1924-yil 25-fevral
milliy belgi	b	Toshkent	1924-yil 10-mart
mas‘ul kotib	Q.Odinayev	s	1924-iyul oyi
birinchi qurultoy	Kalinin	Buxoro	d

Qaysi guruh quyidagi javoblar kabi gap tuzilmasiga ko‘ra to‘liq va to‘g‘ri yozib, birinchi bo‘lib topshirsa, rag‘bat qartochkasi beriladi.

1) 1925-yil 24-fevralda Buxoroda kompartiyaning plenum muhokamasiga milliy-hududiy chegaralanish masalasi qo‘yildi. Plenumda Fayzulla Xo‘jayev ma’ruza qildi.

2) 1924-yil 10-martda Toshkentda Turkiston kommunistik partiyasi xodimlarining kengashida A.Rahimboyev milliy-hududiy chegaralanishni milliy belgi bo‘yicha o‘tkazishni ta’kidladi.

3) 1924-yil iyulida Q.Odinayev Xorazm kompartiyasi mas‘ul kotibi lavozimidan olib tashlandi.

4) 1925-yil 13-17 fevralda Buxoroda maxsus qurilgan “Xalq uyi”da Butuno‘zbek sovetlarining birinchi ta’sis qurultoyi (s‘yezdi) bo‘lib o‘tdi. Qurultoy ishida Moskvadan kelgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi M.Kalinin qatnashdi va nutq so‘zladi. [3]

IV. Talabalar bilimni baholash

O‘qituvchi tomonidan rag‘bat kartochkalari sanaladi va “Komandada o‘qitish” metodi asosidagi seminar mashg‘ulotining g‘olib guruhi aniqlanadi.

V. Darsni xulosalash va yakunlash

O'qituvchi ikki komanda a'zolari (talabalar)ga faolliklari uchun minnatdorchilik bildiradi. Navbatdagi mavzu va rejalarni e'lon qiladi ("1920-30 yillarda O'zbekiston SSRda madaniy hayot"). Keyingi mashg'ulot hamkorlik strategiyasining "Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish" metodi asosida joriy qilinishi rejalashtiriladi.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, o'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi. [2]

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

-hamkorlik strategiyasining "Komandada o'qitish" metodi tanlanib, O'zbekiston oliy o'quv yurtlari tarix ta'lim yo'nalishida o'tiladigan "Jahon tarixi" fanining o'quv (seminar) mashg'ulotini tashkil etish ham amaliy natija beradi.

- hamkorlikda o'qitishning "Birgalikda o'qiyamiz" metodidan foydalanib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini berilishi ham o'z samarasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Дилова Н.Ф. Ўқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг ўрни. Замонавий таълим. 2017. 1-сон. –Б.24-31.
2. Расулова З.Д. Технологии развития творческих качеств студентов. Наука и образования сегодня. 2021. -С. 34-37.
- 3.Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Биринчи жилд. Тошкент. "Фан", 2024 йил. 15-бет.
- 4.Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси. -Бухоро: Бухоро, 2003. -Б. 33.
- 5.Rahmonov K.J. Hamkorlik strategiyalariga asoslangan seminar darslarini loyihalashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar ("1920-1924 yillarda BXSР matbuoti" mavzusi misolida). Pedagogik akmialogiya. 2024 yil. 6-son. –B. 96-101.
- 6.Rahmonov K.J. Tarix fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv qo'llanma. . –Toshkent, "FAN ZIYOSI". 2024. -130 bet.
- 7.Hayitov Sh. va boshqalar. Fan va texnika tarixi. Darslik. Buxoro. "Kamolot" nashriyoti. 2024. -196 bet.